

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ganiyev Shaxobitdin Xolmatovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik

fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, mayor

tel: +99890-317-10-27.

shax.ganiev86@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning bugungi kundagi amaliyoti, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish choralari ko‘rish kerakligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, samarali jihatlari e‘tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat, ijtimoiy xavfli qilmish, ko‘p miqdor, sud-huquq tizimi, harakat yoki harakatsizlik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, talon-toraj.*

PRACTICE OF COMBATING CRIME: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation. *This article examines the prevention of crimes committed in our country, the current practice of combating crime, the need to take measures to improve the relevant regulatory and legal framework in this field, its specific features, as well as its effective aspects.*

Keywords: *crime, socially dangerous act, large amount, judicial and legal system, action or inaction, law enforcement agencies, embezzlement.*

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar davomida huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta‘minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishilgan bo‘lsada, ammo ayrim turdagi jinoyatlarni salmog‘ining oshishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, “Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashib, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi.

Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bu faoliyatga ko‘rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo‘lsa ham jinoyat bo‘lgani hammamizni tashvishga solishi kerak” deb ta’kidlab o‘tgan⁷⁹.

Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida jinoyat sodir etgan shaxsga jazo bergandan ko‘ra, jinoyatni oldini olish barchasidan afzal hisoblanadi. Shu sababli jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida albatta, jinoyatlarni huquqiy statiskasiga ham e’tibor berish lozim, chunki shu yo‘l bilan asosan qaysi turdagi jinoyatlar ko‘prok sodir etilib kelinayotganligiga va ularning sabablari hamda sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga aniqlik kiritiladi.

Mazkur muammoni yoritish jarayonida dastavval “jinoyat”, “ijtimoiy xavfli qilmish” so‘zlarining terminologik tushunchalariga to‘xtalib o‘tishimiz va ularning mazmunini tushinib olishimiz maqsadga muvofiqdir, negaki ijtimoiy va boshqa yuridik adabiyotlarda mazkur terminlar turlicha talqin qilinadi.

Jumladan, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi bilan bilan qo‘riqlanadigan ob’ektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi⁸⁰.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida albatta O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining o‘rni beqiyos. Chunki ushbu Kodeksning vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari belgilaydi⁸¹.

Afsuski, bugungi kundagi amalda bo‘lgan Jinoyat kodeksida bir qator kamchiliklar mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib oladigan bo‘lsak, ushbu Kodeksning X-bobi “O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish” bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘rsatib

⁷⁹ Sh.Mirziyoyev. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. <https://kun.uz/17729101>

⁸⁰ O‘zbekiston Respublitkasi Jinoyat kodeksi, T-2024. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2024 y., 03/24/980/0840-son. <https://lex.uz/docs/111453>.

⁸¹ O’sha manba.

o'tilgan va ushbu bob 164-moddadan 169-moddaga qadar jami 6 ta jinoyatlarni o'z ichiga oladi.

Respublika miqyosida sodir etilgan jinoyatlarning tahliliga ko'ra, aksariyati o'zgarar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar ekanligi va har yili boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Unga ko'ra so'nggi 5 yil ichida eng ko'p jinoyatlar iqtisodiy sohada (asosan o'zgarar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq) - 43,8 foiz, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar ikkinchi o'rinda - 24 foiz, davlat organlari, boshqaruv va jamoat birlashmalari faoliyatiga qarshi jinoyatlar - 16,4 foiz, shuningdek, shaxsga qarshi jinoyatlar - 15,2 foiz sodir etilgan. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar 0,4 foizni, ekologiya sohasida 0,2 foizni tashkil etgan⁸².

Bu holat nimadan dalolat beradi?. Albatta bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Jinoyat kodeksini yanada takomillashtirish hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish payti kelganligidan dalolat beradi.

Mazkur turdagi jinoyatlarning sabablarini va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning tahlilidan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, deyarli shu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar asosan oson yo'l bilan boyib ketish, o'zganing haqqi evaziga kun ko'rishni o'z oldiga maqsad qilib, sodir etib kelayotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Bunga yana asosiy sabablardan biri sifatida o'zganing mol-mulkini jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritmoqchi bo'lgan shaxslarga shu narsa ma'lumki, ya'ni Jinoyat kodeksida aynan shu turdagi jinoyatlar uchun belgilangan jazo turlari, miqdori va ularni o'tash borasida ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib, ana shu kamchiliklardan xabardor bo'lgan shaxslar shu fursatdan foydalanib, jinoyatni sodir etishga qo'l urishmoqda desak ham xato bo'lmaydi. Chunki, biron-bir shaxs o'zganing mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatni sodir etsa va uning oqibatida unga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatini yetkazilgan moddiy zararni o'rni to'liq qoplanmagan bo'lsa ham qisqartirilishi yoki yengil jazo turiga almashtirilishi mumkinligi ushbu qonunchiligimizda belgilab qo'yilganligidan xabardor bo'lganliklari asosiy sabab bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, bir shaxs o'zganing mulkini ko'p miqdorda talon-toraj qildi va unga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Biroq, jinoyatchi shaxs tomonidan yetkazilgan moddiy zararining o'rni umuman qoplab berilmadi, lekin ushbu shaxs tayinlangan 8 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini to'liq o'tamayotganligi yoki bo'lmasa jazo muddatini

⁸² <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/19/crime-stats-uzbekistan/>.

to‘liq o‘tamasdan turib yengil turdagi jazoga almashtirish holatlari bo‘layotganligi va buni tushungan jinoyatchi shaxslar bundan foydalanib, yana o‘zlarining jinoiy faoliyatlari bilan shug‘ullanib kelayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Eng achinarlisi, muqaddam o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan tayinlangan jinoiy jazoni o‘tash vaqtida yoki o‘tab bo‘lganidan so‘ng, bundan o‘ziga tegishli xulosa chiqarmasdan, tuzalish yo‘liga kirmasdan, davlat va jamiyat uchun foydali mehnat bilan shug‘ullanmasdan yana shu turdagi jinoyatni sodir etish yo‘liga kirib, o‘zining jinoiy faoliyatini davom ettirib kelayotganligi barchamizni tashvishga solmoqda.

Shuning uchun amaldagi Jinoyat kodeksining 73-moddasi “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish”, 74-moddasi “Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish”, 76-moddasi Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish” kabi moddalariga o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan yetkazilgan moddiy zararning o‘rni to‘liq qoplanmagan taqdirda unga nisbatan qo‘llanilmasligi haqida normani kiritish lozim. Ana shunda ushbu norma mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etmoqchi bo‘lgan shaxsga o‘zining huquqiy ta‘sirini ko‘rsatishni boshlaydi. Ya‘ni ushbu norma jinoyatchi shaxsni jiddiy o‘ylantirishi va bu jinoyatni sodir etishdan foyda yo‘qligini tushunib yetish darajasiga yetkazib qo‘yishi hamda bu turdagi jinoyatlar sodir etilishining oldi olinishiga zamin yaratar edi. Chunki, o‘zganing mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatni sodir etmoqchi bo‘lgan shaxs jinoyatni sodir etishidan oldin o‘ylanib qoladi, ya‘ni agarda ushbu jinoyatni sodir etgan taqdirda va uning natijasida jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan mulkni to‘liq o‘z egasiga qaytarmasa, u tomondan sodir etilgan jinoyat bo‘yicha tayinlanadigan jazo muddatini to‘liq o‘tab chiqishi kerakligini tushunib yetadi va jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishiga olib keladi.

Bundan tashqari, har bir sodir etilgan jinoyat bo‘yicha jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart. Undan keyin tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi.

Biroq, bugungi kunda ana shu taqdimnomaga asosan joylarda o‘tkazib kelinayotgan jinoyat muhokamalari yetarli darajada sifatli o‘tkazib kelinmayotganligi holatlari uchrab kelinmoqda. Shu sababli kiritilgan taqdimnomaga asosan tegishli joylarda jinoyat muhokamasi talab darajasida o‘tkazilsa, ana shunda ushbu jinoyatning sababi va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda jinoyat sodir etilganligi bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish maqsadida barajarilishi

lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab olinadi va bu bilan boshqa jinoyatlar bilan bir qatorda o‘zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarning sodir etilishi oldi olinadi va o‘zining samarasini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashishni yanada takomillashtirish va oldini olish maqsadida yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun bu bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda samarali amaliyotni tatbiq etish orqali, yoki javobgarlikni kuchaytirish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T-2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, T-2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, T-2024.
4. Sh.Mirziyoev. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. <https://kun.uz/17729101>.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/19/crime-stats-uzbekistan/>.